INFLUENCER AWARDS 2023

RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO'MITASI

marketing.uz

TANISH BILISH

wedigital

# INFLUENCER AWARDS 2023 MUKOFOTI REGLAMENTI


1. UMUMIY QOIDALAR
2. Mukofot tashkilotchilari
3. Mukofot taqvimi
4. Mukofotda qatnashish
5. Mukofot nominatsiyalari
6. Mezonlar
7. Iste'molchilarning ovoz berishi
8. Ekspert hay'atining ovoz berishi
9. Kontakt axboroti

## 1. UMUMIY QOIDALAR

**TDMF (Tashkent Digital Marketing Forum) —** har yilgi raqamli marketing forumi, u xalqaro marketing konferensiyasini, Influencer Awards mukofotini va mukofot gʻoliblarini taqdirlash marosimini oʻz ichiga oladi.

**Xalqaro marketing konferensiyasi** – marketing sohasidagi xalqaro va mahalliy ekspertlarning dolzarb keyslar va tarmoq trendlariga boy chiqishlari.

**Influencer Awards 2023 mukofoti —** Oʻzbekistonning 2023-yildagi eng yaxshi inflyuenserlarini aniqlash. 27 ta nominatsiya boʻyicha mukofot ekspertlar ovoz berishini va iste'molchilarning ochiq ovoz berishini oʻz ichiga oladi.

**TDMF24 rasmiy sayti** – internet tarmogʻida, marketing.uz noyob domen nomi ostidagi sayt boʻlib, unda TDMF ledingi joy oladi: reglament, konferensiya dasturi, spikerlar, nominatsiyalar, hay'at, Mukofot ishtirokchilari, iste'molchilar ovoz berishi statistikasi. TDMF24 rasmiy sayti forum toʻgʻrisidagi axborot manbasi sanaladi.

**“Tanish-Bilish” kreativ agentligi** – mukofot hamtashkilotchisi, blogerlar va inflyuenserlar bilan ishlash sohasida 5 yildan ziyod tajribaga ega.

**“We Digital” kreativ dijital agentligi** – mukofot hamtashkilotchisi, ijtimoiy tarmoqlarda marketing va inflyuenserlar bilan ishlashga ixtisoslashgan. AdAsia 2022 reytingiga koʻra, Markaziy Osiyoda SMM & Digital boʻyicha №1 agentlik.

## 2. MUKOFOT TASHKILOTCHILARI

TDMF24 doirasidagi Influencer Awards 2023 mukofoti tashkilotchilari quyidagilardir: Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi, Oʻzbekiston marketing uyushmasi. Mukofot hamtashkilotchilari: “Tanish-Bilish” kreativ agentligi, “We Digital” kreativ dijital agentligi.

## 3. MUKOFOT TAQVIMI

Arizalar qabuli: 2023-yil 10-noyabrdan 2023-yil 22-dekabrgacha (shu kun ham kiradi).
Iste'molchilarning ovoz berishi: 2023-yil 29-dekabrdan 2024-yil 29-yanvargacha (shu kun ham kiradi).
Ekspert hay'atining ovoz berishi: 2024-yil 1-fevraldan 2024-yil 5-fevralgacha (shu kun ham kiradi).
Gʻoliblarni e'lon qilish – 2024-yil 17-fevraldagi Taqdirlash marosimida.

## 4. MUKOFOTDA QATNASHISH

1. Oʻzbekiston Respublikasida yashaydigan yoki auditoriyasining kamida 50 foizi Oʻzbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiladigan; oʻzbek, rus, ingliz tilidagi, Instagram, Facebook, X (Twitter) ijtimoiy tarmoqlari, Telegram messenjeri, YouTube video-xostingi, Twitch striming servisida joylashtirilgan raqamli kontent mualliflari boʻlgan, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qiluvchi va muntazam nashr (oyiga kamida 1 dona kontent)ga va asosiy resursda kamida 10 000 obunachilarga ega jismoniy shaxslar mukofot qatnashchisi

boʻladilar.

2. Mukofotda qatnashish uchun www.marketing.uz saytida avtorizatsiyadan oʻtish va arizani toʻldirish kerak: kontakt ma'lumotlari, nominatsiya nomi, FIO, oʻzi va kontenti haqida axborot, asosiy va qoʻshimcha profil (akkaunt)larga havola. Ariza yuklanganidan keyin “Joʻnatish” tugmasini bosib axborotni albatta joʻnatish zarur. Mukofot tashkilotchilari 5 ish kuni ichida olingan arizaning mukofot talablariga muvofiqligini tekshiradilar (moderatsiya). Ariza ma'qullangan taqdirda qatnashchi www.marketing.uz saytida aks etadi.
3. Mukofotda qatnashish – bepul.
4. Agar qatnashchida bir nechta loyiha boʻlsa, bir qatnashchi bir necha nominatsiyalarda turli loyihalar bilan ariza taqdim etishi mumkin.
5. Faqat 4.1-b.da koʻrsatilgan talablarga muvofiq kelganda, shuningdek ariza oʻz vaqtida topshirilganda va ariza mazmuni mukofot nominatsiyalariga toʻgʻri kelgandagina qatnashchiga mukofotda qatnashishga ruxsat beriladi.
6. Saytda avtorizatsiyadan oʻtilmasa, arizalar qatnashish uchun qabul qilinmaydi.
7. Mukofot hay'ati, bu haqda qatnashchini xabardor qilgan holda, tanlovga kelib tushgan arizalarni baholashning har qanday bosqichida arizani boshqa nominatsiyaga oʻtkazish huquqiga ega.
8. Agar arizalar qabul qilinishi yakunlanadigan sanada nominatsiyada besh nafardan kam qatnashchi boʻlsa, tashkilotchilar bu nominatsiyani bekor qilishlari yoki qatnashchilarni boshqa nominatsiyalarga (toʻrt ishtirokchi roziligi bilan) oʻtkazishi mumkin.
9. Mukofotda qatnashish qatnashchi ushbu Reglament bilan tanishganligi va unga rozi ekanligini anglatadi.
10. Mukofot qatnashchisi mualliflik huquqlariga rioya etish (musiqa, foto, matn va boshqalardan qonuniy foydalanish)ni kafolatlaydi va bu boʻyicha barcha ehtimoliy bahsli masalalarni mustaqil hal qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Profillarda mavjud kontentning mualliflik mansubligi uchun javobgarlik tanlov qatnashchisining zimmasida boʻladi. Mukofot tashkilotchisi qatnashchilar profillarida mavjud axborot muallifligi yoki plagiatligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
11. Bahsli vaziyat yuzaga kelganda, qatnashchining maqomini belgilash boʻyicha qarorni ekspert hay'ati qabul qiladi.

## 5. MUKOFOT NOMINATSIYALARI

| № | Nomi | Tavsifi |
|---|---|---|
| 1 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Sayohat | Turli mamlakatlarga (jumladan Oʻzbekiston boʻylab) sayohatlarga bagʻishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 2 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Foto va video | Fotografiya yoki videografiyaga bagʻishlangan mualliflik kontenti.<br>Tijorat fotorsuratlariga ega portfolio-sahifalar qatnashishiga yoʻl qoʻyilmaydi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 3 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Ota-onalar | Bolalar tarbiyasi va/yoki ota-onalar uchun maslahatlarga bagʻishlangan mualliflik kontenti<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 4 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Fashion | Uslub va modaga bagʻishlangan mualliflik kontenti.<br>Kiyim-kechak brendlari/doʻkonlari qatnashishiga yoʻl |

| | | |
|---|---|---|
| | | qo‘yilmaydi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 5 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Sport va STT | Sportga va sog‘lom turmush tarziga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 6 | 2023-yilning eng yaxshi layfstayl kontenti: Beauty | Go‘zallik industriyasi: kosmetik mahsulotlar, makiyaj va/yoki teri parvarishi, soch, tirnoqlarga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi. |
| 7 | 2023-yilning eng yaxshi ilmiy-ommabop kontenti | Ilm-fanni ommalashtirish va auditoriyaning ilmiy savodxonligini oshirishga bag‘ishlangan mualliflik kontenti. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va kashfiyotlarni; texnologik yangiliklarni; fan olamidagi qiziqarli faktlarni yorituvchi video ma'ruzalar, maqolalar va bloklarga ruxsat beriladi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 8 | 2023-yilning eng yaxshi ta'lim kontenti: Tillar | Bir yoki bir necha tillar, jumladan o‘zbek tilini o‘rganishga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 9 | 2023-yilning eng yaxshi ta'lim kontenti: Foto va video | Foto va/yoki video suratga olish sohasidagi ta'limga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 10 | 2023-yilning eng yaxshi pazandachilik kontenti | Iste'mol uchun taomlar tayyorlashga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 11 | 2023-yilning eng yaxshi sport kontenti | Bir yoki bir necha sport turlariga bag‘ishlangan mualliflik kontenti. Kontentning ta'limiy va/yoki ko‘ngilochar shaklda taqdim etilishiga ruxsat beriladi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 12 | 2023-yilning eng yaxshi ta'lim kontenti: Tibbiyot | Ilmiy asoslangan tibbiyotga bag‘ishlangan, ta'limiy va/yoki ko‘ngilochar maqsadlardagi mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, |

| | | |
|---|---|---|
| | | auditoriyaning jalb etilganligi |
| 13 | 2023-yilning eng yaxshi ta'lim kontenti: Psixologiya | Ilmiy asoslangan inson psixologiyasiga bag‘ishlangan, ta'lim maqsadlaridagi mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 14 | 2023-yilning eng yaxshi ko‘ngilochar kontenti: O‘yinlar | Videoo‘yinlarga bag‘ishlangan mualliflik kontenti. Kontentning ta'limiy va/yoki ko‘ngilochar shaklda taqdim etilishiga ruxsat beriladi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 15 | 2023-yilning eng yaxshi ko‘ngilochar kontenti: Sketchlar va yumor | Qisqa video-sektch (vayn)larga va/yoki yumoristik va/yoki ko‘ngilochar xarakterga ega statik nashrlarga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 16 | 2023-yilning eng yaxshi ko‘ngilochar kontenti: Tajribalar va so‘rovlar | Ijtimoiy so‘rovlar va/yoki tajribalar o‘tkazishga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 17 | 2023-yilning eng yaxshi ijtimoiy kontenti | O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy mavzularga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 18 | 2023-yilning eng yaxshi podkasti | Turli mavzulardagi mualliflik podkastlari.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 19 | 2023-yilning texnologiyalarga oid eng yaxshi kontenti | Texnologiyalar va ITga bag‘ishlangan mualliflik kontenti. Kontentni ta'limiy yoki ko‘ngilochar taqdim etilishiga ruxsat beriladi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 20 | 2023-yilning eng yaxshi intervyulari | Turli mavzulardagi mualliflik intervyulari.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 21 | 2023-yilning eng yaxshi biznes-kontenti | Biznes va tadbirkorlikning turli sohalariga bag‘ishlangan mualliflik kontenti.<br>Kontentning ta'limiy va/yoki ko‘ngilochar shaklda taqdim etilishiga ruxsat beriladi. Biznesmenlar va/yoki tadbirkorlarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi kontent qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram. |

| | | |
|---|---|---|
| | | Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 22 | 2023-yilning eng yaxshi gastronomik sharhlari | Umumiy ovqatlanish muassasalari sharhi va/yoki taomlar degustatsiyasiga bag'ishlangan mualliflik kontenti.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 23 | 2023-yilning avtoga bag'ishlangan eng yaxshi kontenti | Avtomobillarga bag'ishlangan mualliflik kontenti. Kontentning ta'limiy va/yoki ko'ngilochar shaklda taqdim etilishiga ruxsat beriladi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 24 | 2023-yilning eng yaxshi musiqali kontenti | Mualliflik musiqasini yaratishga bag'ishlangan va/yoki mualliflik musiqasidan foydalaniladigan mualliflik kontenti. Boshqa mualliflar kaverlari va/yoki remikslariga ruxsat beriladi. Prodakshn studiyalari jalb qilingan professional musiqali kliplarga yo'l qo'yilmaydi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 25 | 2023-yilning eng yaxshi reklama integratsiyasi | Ushbu nominatsiyada, boshqa nominatsiyaga taqdim etilgan arizalardan qat'i nazar, mukofotning barcha ishtirokchilari qatnashishlari mumkin. Bu nominatsiyada bir ishtirokchidan faqat bitta ariza qabul qilinadi.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 26 | 2023-yilning eng yaxshi ko'ngilochar kontenti: Boshqa | Boshqa nominatsiyalarga to'g'ri kelmaydigan ko'ngilochar kontent.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |
| 27 | 2023-yilning eng yaxshi ta'lim kontenti: Boshqa | Boshqa nominatsiyalarga to'g'ri kelmaydigan ta'lim kontent.<br>Maydonchalar: Facebook, Instagram, YouTube, Telegram.<br>Format: Matn, Foto, Video, Audio<br>Baholash mezonlari:Kreativ yondashuv, foydalilik, auditoriyaning jalb etilganligi |

## 6. MEZONLAR

**1. Mukofotda qatnashish mezonlari (long-list)**

1. Nashrlar chastotasi. Asosiy resursda kamida oyda bir marta.
2. Asosiy resursda kamida 10 000 obunachilarga ega bo'lishi lozim.
3. Mavzuga muvofiqlik. Kontentning kamida 50 foizi tanlangan nominatsiyaga muvofiq kelishi lozim.
4. Mualliflik yondashuvi. Begona kontentdan vijdonsiz foydalanilmasligi.
5. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan "Reklama to'g'risida"gi qonunga rioya qilish.

**2. Mukofotning keyingi bosqichiga oʻtish mezonlari (short-list)**
1. Iste'molchilar ovoz berishi natijalariga koʻra yuqori beshta oʻrin
2. Jalb etilganlik (obunachilar/qamrov/jalb etilganlik nisbati)
3. Ekspert hay'ati tomonidan kontent tahlili

**3. Gʻoliblarni tanlash mezonlari**
1. Kreativ yondashuv
2. Kontentning foydaliligi
3. Kontentning jamiyatga ta'siri
4. Mahsuldorlik (kontent birligi miqdori va sifati)
5. Prodakshnning murakkabligi
6. Qoʻshimcha individual koʻrsatkichlar
7. Zarur hollarda, taklif etilgan ekspert bahosi (ekspert – tarmoq vakili)

## 7. ISTE'MOLCHILARNING OVOZ BERISHI

**1.** Mukofot doirasida iste'molchilarning ochiq ovoz berishi oʻtkaziladi.
**2.** Ovoz berish @uzbekinfluencer telegram-botida oʻtadi.
**3.** Ovoz berishda umumiy asoslarda 12 yoshdan oshgan istalgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek chet el fuqarosi qatnashishi mumkin. Tanlovda voyaga yetmaganlarning qatnashishi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, ularning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlarning ovoz berishda qatnashishi uchun ota-onalardan birining yoki qonuniy vakilning roziligi talab etiladi.
**4.** Ovoz berish Ofertaga muvofiq amalga oshiriladi, u ovoz berish botida joylanadi.
**5.** Ovoz berishni oʻtkazish hududi: Oʻzbekiston Respublikasi.
**6.** Tashkilotchi Ofertaga oʻzgartirish kiritish (bunday oʻzgartishlarni Telegram-botda albatta e'lon qilish sharti bilan) huquqiga ega.
**7.** **Iste'molchilar ovoz berishi taomili**
Mukofotda ovoz berish uchun quyidagilar talab etiladi:
A) uzbekinfluencer Telegram-botida roʻyxatdan oʻtish;
B) tilni tanlash va telefon raqamini yuborish;
C) keladigan 3 ta savolga javob berish.
D) 26 ta nominatsiyada ovoz berish;
8. Ovoz berishning bir qatnashchisi har bir nominatsiyada faqat bir marta ovoz berishi mumkin.
9. Tashkilotchi ovozlarni qoʻshimcha, jumladan ham ovoz berish vaqtida, ham u yakunlanganidan keyin takroriy verifikatsiya yoʻli bilan tekshirish huquqiga ega.
10. Ovoz berish davomida ovoz berishga chorlovlarga ruxsat beriladi. Sovrinlar, boshqa moddiy qimmatliklarni yutib olish, ovoz berishda qatnashganlik uchun chegirmalar, bonuslarga ega boʻlish va'da qilinadigan chorlovlar yoki boshqa turdagi faolliklar (givlar, tanlovlar, yutuqlar oʻyini va sh.k.)ga ruxsat berilmaydi.
11. Iste'molchilar ovoz berishi yakunlari boʻyicha uchta oʻrin sohiblari mukofot short-listiga kiritiladi.
12. Mukofot ekspert hay'ati short-list qatnashchilari sonini yana ikkita qatnashchilarga koʻpaytirish mumkin.
13. Gʻoliblar 2024-yil 17-fevralda oʻtadigan Taqdirlash marosimida e'lon qilinadi.
14. Barcha istovchilar ovoz berishdan oldin va ovoz berish davomida www.marketing.uz saytiga oʻtib, qatnashchilar bilan tanishishlari mumkin.
15. Tashkilotchilar (albatta oldindan kelishgan holda) qatnashchilar tomonidan arizada koʻrsatilgan axborotdan OAV va internet-resurslarda mukofotni yaratishi uchun foydalanish huquqiga egalar.

**8. EKSPERT HAY'ATINING OVOZ BERISHI**

1. Mukofot ekspert hay'atining tarkibi tashkilotchilar tomonidan, inflyuens-marketing, reklama sohasidagi, tegishli kasbiy tajriba va yutuqlarga ega yetakchi mahalliy hamda xorijiy mutaxassislardan shakllantiriladi.
2. Ekspertlar:
   - www.marketing.uz saytida qatnashchilar bilan tanishadilar
   - mukofot short-listini aniqlaydilar;
   - mukofot gʻoliblarini tanlaydilar;
   - gʻoliblarni taqdirlash marosimida qatnashadilar.
3. Ekspert hay'ati tomonidan short-list va gʻoliblarni tanlash ZOOM platformasidagi onlayn-muhokama formatida amalga oshiriladi.
4. Tanlov ekspert hay'atining tarkibi marketing.uz saytida e'lon qilinadi.
5. Ekspert hay'ati maxsus sovrinlar tayinlash huquqiga ega.

**9.KONTAKT AXBOROTI**

Oʻzbekiston marketing uyushmasi
100007, Toshkent sh., Mirzo Ulugʻbek shohkoʻchasi, 25
Tel.: +998 (97) 402-28-20, +998 (97) 037-28-20
e-mail: info@marketing.uz

Mukofot toʻgʻrisida axborot chop etuvchi uyushma resurslari ( oʻzbek va rus tillarida):
Cayt
https://marketing.uz
Telegram
https://t.me/uzbekmarketing
https://t.me/makonmarketing
Instagram
https://instagram.com/uzbekmarketing?utm_medium=copy_link
https://instagram.com/makon_marketing?igshid=ZWQyN2ExYTkwZQ==
Facebook
https://www.facebook.com/uzbekmarketing
https://www.facebook.com/MakonMarketing
YouTube
https://www.youtube.com/c/MAKONMARKETINGUZ